

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**IBRAGIMOV BAXADIR ZINADDINOVICH**

**XX ASR IKKINCHI YARMI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDAGI  
QORAQALPOG'ISTON DAVLAT ARBOBLARI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Ibragimov Baxadir Zinaddinovich**

XX asr ikkinchi yarmi-XXI asr birinchi choragidagi Qoraqalpog‘iston davlat arboblari ..... 4

**Ибрагимов Бахадыр Зинаддинович**

Государственные деятели Каракалпакстана второй половины XX века –  
первой четверти XXI века ..... 25

**Ibragimov Bakhadir Zinaddinovich**

Statesmen of Karakalpakstan in the second half of the 20th century - the first  
quarter of the 21st century ..... 49

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 53

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**IBRAGIMOV BAXADIR ZINADDINOVICH**

**XX ASR IKKINCHI YARMI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDAGI  
QORAQALPOG'ISTON DAVLAT ARBOBLARI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B.2021.2.PhD/Tar907 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Koshanov Baxitbay Abdikerimovich,**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy taqrizchilar:**

**Davletov Sanjarbek Rajabovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Bekimbetov Baxadir Mirzabaevich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «8» 7 soat 12:00 dari majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz).)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (425 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "22" 06 kuni tarqatildi.  
(2026-yil "21" 09 dari 35 raqamli reestr bayonnomasi)

*Kepesh*

M.A.Karlibaev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

X.M.Otegenov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.M.Djumashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rmosari, tarix fanlari doktori, professor



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Hozirgi globalizatsiya jarayonida, jamiyat ma’naviy-madaniy taraqqiyotida tarix fanining ahamiyati yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda jahon tarixshunosligi “tarixda inson” muammosini birinchi o‘ringa chiqarib, tarixiy anglashni insonparvarlashtirish barobarida xalqlar va kishilik jamiyatlarining tarixiy-madaniy mavjudligini dialektik bog‘liqlikda ochishga yordam bermoqda. Shu jihatdan alohida hududlar va mintaqqa boshqaruvida muhim rol o‘ynagan rahbar kadrlar shaxsi, ularning boshqaruvdagi o‘rni masalalarini tarixiylik nuqtayi nazaridan tadqiq etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Dunyoda siyosiy elitalarning shakllanishi, XX asrning ikkinchi yarmidan to bugungi kunga qadar davlat hokimiysi tuzilmalarida rahbarlik lavozimlarini egallashi hamda ularning muhim qarorlarni qabul qilishda bevosita ishtiroki, jumladan, Qoraqalpog‘iston siyosiy elitasining davlat va jamiyat organlaridagi faoliyati masalalarida izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, hokimiyat organlarining mansabdor shaxslarini mas’uliyatini yanada oshirish, ular tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalarni aniq belgilash, aholining turmush darajasini oshirish hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan manzilli dasturlarni ishlab chiqishda davlat va mahalliy hokimiyat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan kishilarning ishtirokini kengaytirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosati, avvalo, xalqning turmush tarzini yaxshilashga, ularni jamiyatdagi mavqeini ko‘tarishga qaratilgani e’tiborga molikdir. Respublikaning barcha hududlari, xususan, Qoraqalpog‘istonda olib borilayotgan islohotlar natijasida aholining yashash sharoitlari yaxshilanib, farovonlik darajasi ortib bormoqda. Mazkur jarayonda mahalliy va yuqori davlat organlari rahbarlarining faolligi hamda sadoqatligi muhim o‘rin tutadi. Zero, “inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish uning birinchi maqsadi etib belgilangan”<sup>1</sup>. Shu bois XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida xalq xo‘jaligini boshqarish va jamiyatning madaniy rivojlanishi tarixiy tajribasini Qoraqalpog‘iston davlat arboblari faoliyati orqali o‘rganish ayniqsa dolzarbdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-sон “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-сон “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”ги farmonlari, 2018-yil 4-maydagi F-5430-son “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ги Farmoyishi hamda sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy

---

<sup>1</sup> Xalqni rozi qilish – barcha rahbarlarning eng ustuvor vazifasi // <https://president.uz/uz/lists/view/5378>

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Muammoning o‘rganilganlik darjasи yuzasidan adabiyotlarni uch guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga 1950-1991-yillardagi tarixiy tadqiqotlar kirsa, ikkinchi guruhni esa mustaqillik davriga oid adabiyotlar, uchinchi guruhni xorijiy adabiyotlar tashkil qiladi.

O‘zbekiston tarixidagi sovet davri tarixiga oid tadqiqotlarda bir yoqlama baho berilgan edi, xalqimizning buyuk yaratuvchanlik salohiyati va mehnatini yuzaga chiqarish, ilm-fan, san’at va madaniyat sohasidagi yutuqlarini e’tirof qilish hukmron mafkura chegarasida yoritildi. Shuningdek, bu davr tarixini o‘rganishda O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda milliy elita va ziyolilarning shakllanishi, taqdiri, ularning faoliyatiga hukmron mafkura va ijtimoiy muhitning ta’siri bo‘ldi<sup>2</sup>.

Mustaqillik yillari tarixchilar o‘rganilayotgan mavzular qatoriga sovet davridagi O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston iqtisodiyoti, undagi stagnatsiya sabablari, paxta monopoliyasi oqibatlari, 1980-yillardagi siyosiy inqiroz kabi muammolar kiritildi<sup>3</sup>. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston ziyolilari tarixi, elatlararo aloqalar, ekologiya muammolariga katta e’tibor qaratildi.

Ta’kidlash joizki, yaqin paytlargacha sovet davri tarixini o‘rganishda bu davrdagi masalalarni faqat salbiy nuqtayi nazardan baholash tendensiyasi mavjud edi. Tadqiqotlarning aksariyatida xalqimizning turli sohalardagi yutuqlari

<sup>2</sup> Очерки истории Каракалпакской АССР. 1917-1963 гг.– Ташкент: Наука, 1964. Т. 2; История Каракалпакской АССР.– Ташкент: Фан, 1974. Т.2; История Каракалпакской АССР. С древнейших времен до наших дней. Под ред. академика М.К.Нурмухamedова. – Ташкент: Фан, 1986; Жапаев Н. Еске тусириўлер. Илимий мийнетлери. - Нөкис: Билим, 1990; Наўрыз Жапаев. Шығармалары. 1-2 том. - Нөкис, Қарақалпакстан, 1980; Нәжим Дәўқараев (Еске тусириўлер). – Нөкис: Қарақалпакстан, 1990; Сеитов П. Улкен жолда // Совет Қарақалпақстаны. – Нөкис, 1984, 15 ноябрь; Халмуратов О. Бәркулла халық пенен. – Нөкис: Қарақалпакстан, 1973; Косымбетов И. Қарақалпақ совет интеллигенциясының тарийхынан. - Нөкис: Қарақалпакстан, 1970; Кутымов Т. Становление и развитие социалистической интеллигенции Каракалпакской АССР. – Нукус: Каракалпакстан, 1981; Байниязов Қ. Таң жулдыздары. (Әжайып адамлардың өмири). – Нөкис: Қарақалпакстан, 1989; Проблемы истории Республики Средней Азии и Казахстана в 40-50-е годы.- Ташкент: Фан, 1989.

<sup>3</sup> Камалов С.К. Қарақалпақлардың халық болып қөлиплесиўи ҳэм оның мәмлекетлигинин тарийхынан. – Нөкис, 2001; Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. XIX әсирдин екинши ярымынан XXI әсирге шекем. - Нөкис: Қарақалпақстан, 2003; Абдуллаева Я.А. Қорақалпогистон хотин-қызлари: Кече ва бугун. XIX асрнинг охири ва XX аср. -Тошкент: Ijod dunyosi, 2004; Айтмуратов Ж. Культура и искусство Каракалпакстана XX века. – Нукус: Билим, 2024; Базарбаев Ж. Әдиўли ел ағасы - пидайы инсан. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2016; Джумашев А., Нуржанов С., Уразова Л., Таджиева Р. Қарақалпақстан тарийхы (1991-2015 жыллар).– Нөкис: Илим, 2013; Сарыбаев М.К. Политика хлопковой монокультуры советской власти в Каракалпастане и ее последствия (1917-1990). – Ташкент 2008; Сарыбаев А. Хлопкоочистительная и текстильная промышленность Каракалпакстана в 1980-1995 гг. – Ташкент, 2008; Ахметшин Р.Ш. История учреждений культуры Республики Каракалпакстан в 1946-1960-е годы.- Нукус, 2016; Аметов Т.А. Общественно-политические процессы в Республике Каракалпакстан в период независимости (1989-2014). – Ташкент 2017; Карлыбаев А. Орай жиберген жәлладлар ҳэм бийгұна курбанлар.-Нөкис, 1992; Мәмбетназаров Т., Мәмбетназарова З. Халқы қәдирилген инсан. – Нөкис: Билим, 2011; Нызанов М. Муса Ерниязов. – Нөкис: Жети ықтимал, 2023; Уша муаллиф. Қарақалпақстанның даңқлы перзентлери. – Нөкис: Жети ықтимал, 2023.

e'tibordan chetda qolib ketmoqda edi. Materiallarning ulkan zaxirasi mavjud bo'lgani holda tadqiqotlar ushbu davr tarixiga muvozanatli yondashuvning mavjud emasligidan zarar ko'rgan. So'nggi yillarda sovet davrida sodir bo'lgan ham salbiy, ham ijobjiy jarayonlarga obyektiv baho berish tendensiyasi ko'zga tashlanmoqda<sup>4</sup>. Eng yangi davri yo'nalishida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotga oid turli jarayonlar o'r ganib chiqildi. Muhim muammolar doirasiga iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy islohotlar, parlamentarizm, ko'p partiyalilik, fuqarolik jamiyat shakllanishi, tashqi siyosat, ma'naviyat va ma'rifat tarixi kiritildi. Eng yangi tarix bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida jiddiy kamchiliklar: mustaqillik arafasidagi muhim voqealarni yuzaki va tizimsiz tahlil qilish; xorijiy tadqiqotlarni yetarli darajada bilmaslik; manbashunoslik asosining sustligi va ko'p hollarda hozirgi davr tarixinining asosiy voqealari bo'yicha muqobil ma'lumotlarning yo'qligi kabi holatlar kuzatildi.

Memuar adabiyot – bu madaniy-tarixiy nuqtayi nazardan O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tarixiga oid muhim manbalar hisoblanadi. Xususan, mamlakat rahbarlari, yozuvchilar, harbiy qo'mondonlarning hayot yo'llari, tarixiy voqealardagi ishtiroki to'g'risida xotiralar mavjud<sup>5</sup>. Qoraqalpog'istonning davlat arboblari, olimlar va madaniyat xodimlari xotiralari shaxslarning hayotini aks ettirganligi bilan e'tiborlidir. Tarixiy xotiralarda tegishli davrning voqealari va muammolariga muallifning qarashlari hamda munosabati aks etgan.

<sup>4</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 2-3 китоб; Ўзбекистон тарихи. 1917-1991.– Тошкент, 2019. 1-2 том; Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик. – Тошкент: Фан, 2024; Коцанов Б.А., Отегенов Х.М. Очерки истории Каракалпакстана (1916-1991 гг.). – Нукус: Каракалпакстан, 2021; Коцанов Б.А., Алламуратов Г.С. Пиржан Сеитов: штрихи к портрету. – Нукус, 2021; Халмуратов А. Ел ағасының екинши өмири. – Нөкис, 2005; Илюхин В. Қабоҳат ёхуд... («Ўзбеклар иши» деган уйдирма хусусида). – Тошкент: Ўзбекистон, 1993; Аширбеков У. Некоторые аспекты социально-экономического развития Республики Каракалпакстан в условиях экологического кризиса Аральского моря. – Нукус: Билим, 2014; Сейдаметова Г. Повседневная жизнь городского населения Каракалпакстана в 60-80-х годах XX века.- Ташкент, 2020; Елмуратов И.Г. Мустакиллик йилларида Қарақалпогистон Республикасида таълим соҳасидаги ислохотлар ва ривожланиш тарихи (1991-2020). – Нукус: Илипаз, 2022; Базарбаев Ж. Руўхиятыймыз маржанлары ямаса үлгили ел үлкенин, көрегенли ел откенин қәстлерлайди. – Нөкис: Билим, 2008; Уша муаллиф. Әдили ел ағасы, пидайы инсан. – Нөкис: Каракалпакстан, 2006; Айтмуратов Ж. Тарийх жылнамасын жараткан инсан.-Нөкис: Билим, 2021: Шигабдинов Р. Амин Ниязов.-Ташкент, 2009: Пасилов Б. Усмон Юсупов. – Ташкент, 2019: Доспанов О. Султан Қаниязов ҳәм оның туўысқанларының тәғдири. – Нөкис, 1992; Шалқаров Ш. Өлип тирилиў.-Нөкис, 1991 Шамамбетов Б. Аграрное развитие Республики Каракалпакстан в 1965-1985 гг.: опыт и проблемы. – Нукус, 2015; Айтмуратова Ж. Қорақалпогистон маданияти тараққиётида фан, адабиёт ва санъат арбобларининг тутган ўрни (XX аср иккичи ярми – XX1 аср бошлари). – Нукус, 2024.

<sup>5</sup> Камалов Қ. Ел хизметинде (еске түсириўлер). – Нөкис: Каракалпакстан, 1995; Уша муаллиф. Ел хизметинде. 2-нашр. – Нөкис: Билим, 2019; Уша муаллиф. Эл хизматида (Хотиралар). – Нукус: Билим, 2021; Уша муаллиф. Илимли елге нур жаўар.- Нөкис: Илим, 2010; Уша муаллиф. Қарақалпақ халқының тарийхы ҳаққында жаңа дәреклер. – Нөкис: Билим, 2020; Академик Марат Нурмухamedов. Прыжок. – Ташкент: Бактрия прес, 2020; Қаниязов Султамурат. Алтын жағыс. Мемуар. – Нөкис: Билим, 2006; Адилов А. Билгениннен билмегениң көп дунъя. Еске түсириўлер ҳәм турмыс тәжирийбелери. – Нөкис: Билим, 2004; Мухитдинов Н. Годы, проведенные в Кремле. – Ташкент: Узбекистан, 1994; Мусиран хажы Қыйынбай улы. Өмир жолым. Еске түсириўлер. – Нөкис: Қарақалпакстан, 1998; Камалов С.К., Айтмуратов Е., Рзаев К., Сеитов Х., Курбанов Б., Камалова А., Уталиев А. Ш. Рашидов ҳаққында ҳақыйқатлық. – Нөкис, 1992; Кунназаров А. Жети асырым. – Нөкис, 2000; Отениязов К. Ойларыма өзек өмирим. – Т.: Академия, 2000; Тожиев А. Ҳаётим халқима тегишли. – Тошкент, 2006; Журбин Ю.А. Воспоминания о Камалове К.К. Каллибек Камалов – достойный и верный сын каракалпакского народа. – Москва: Белый Ветер, 2017; Шагилов И. Өткен кунларди еслеймен. – Нөкис: Билим, 2012; Моянов Ж. Ерди ели ардақласын. Узакберген Тилеўмуратов ҳаққында. – Нөкис: Билим, 2020; Камалов С. Өмирим сабакларынан (Еске түсириўлерим). - Нөкис: Илим, 2019; Давлетмуратова Т. Немного о культуре. – Нукус: Каракалпакстан, 2021.

Xorijiy tadqiqotchilar T.Bodjio, Karrer D.Enkos, J.Kritchlou, Adif Xalid kabilar Sovet Ittifoqi tarixini yoritishar ekan, ular O‘rta Osiyoda amalga oshirilgan milliy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratishgan. Sovet voqeligining kadrlar siyosatini tadqiq qilishgan. Mansabdar xodimlarning vujudga kelishi tarixi bilan shug‘ullangan. Sovet siyosiy tizimining keyingi davrlardan tubdan farqlanganligini ta’kidlab, bolsheviklar tuzumi hukmron partiyaning oligarxik rahbariyatiga ega bir partiyalik diktatura bo‘lgan. Sheyla Fitspatrik esa sovet siyosiy va ijtimoiy namoyandalarining shakllanish jarayonini “lavozimlarga tayinlash” doirasida ko‘rib chiqadi<sup>6</sup>.

Umuman olganda mavzuga doir tadqiqotlar tahlili XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr birinchi choragida Qoraqalpog‘iston davlat arboblarining respublika faoliyati tarixi va ularning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotidagi roli kompleks tarzda alohida tadqiqot doirasida o‘rganilmaganligini ta’kidlaydi. Bu esa tadqiqotning dolzarbligini yana bir bor ko‘rsatadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi Qoraqalpoq davlat universiteti “O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston tarixi” va Arxeologiya kafedralarining “Qoraqalpog‘iston tarixining dolzARB muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr birinchi choragida Qoraqalpog‘iston davlat arboblarining respublika siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotidagi faoliyatini yoritishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

1950-yillar boshida Qoraqalpog‘istonda rahbarlik qilgan Tursun Qambarov faoliyatiga baho berish;

Xalqimizning taniqli farzandi Pirjan Seitovning ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki o‘n yillikdagi faoliyatini ochib berish;

Markazdan kelgan Orzi Maxmudov va Nosir Maxmudovlar rahbarlik qilgan davrni bayon etish, faoliyatiga baho berish;

Chorak asrdan ko‘p respublikaga rahbarlik qilgan Qallibek Kamalov faoliyatiga arxiv manbalari, xotiralar asosida xolisana tahlil etish;

«Qayta qurish» davrida respublikada rahbarlik qilgan Kakimbek Salikov faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlarini ochib berish;

---

<sup>6</sup> Bodio T., Zalenski P. Elites of Power in Central Asia. — Warszawa: IPS UW, 2008; Carrere d’Encausse H. The End of the Soviet Empire. The Triumph of the Nations. — New York, London: Harper Collins, 1993; Critchlow J. Nationalism in Uzbekistan: A Soviet Republic’s Road to Sovereignty.- Boulder (CO): Westview Press, 1991; Disaster by Design: the Aral Sea and its lessons for sustainability. Edited by Michael R.Edelstein, Astrid Cerny, Abror Gadaev. Emerald Group Publishing Limited. Howard House. 2012; Fierman W. Political Development in Uzbekistan: Democratization? // Eds. by K.Dawisha and B.Parrott. Conflict, Cleavage, and Change in Central Asia and the Caucasus. — Cambridge: Cambridge University Press, 1997; Khalid Adeeb. Islam after Communism. Religion and Politics in Central Asia. - Berkeley-Los Angeles-London: University of California Press 2007; Khalid Adeeb. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Cornell University Press. 2015; Micklin P.P. Dessication of the Aral Sea: A water management disaster in the Soviet Union// Science. American Association for Advancement of Science. Washington, 1988. № 241; Olcott M.B. Central Asia’s Catapult to Independence // Foreign Affairs, Summer 1992; Post-Soviet Central Asia. Eds. by T. Atabaki and J. Kane. — London: I. B. Tauris, 1998; Salih Yilmaz. Karakalpak Türkleri Ve Karakalpakstan Tarihi. Ankara. Türk Tarih Kurumu Yayınlari. 2008.

Mustaqillik arafasida respublikaga rahbarlik qilgan Sagindik Niyetullayev va Davletbay Shamshetovlarning Qoraqalpog‘iston ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojiga qo‘sghan hissasini yoritish;

Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyasi, Davlat ramzlarini qabul qilish jarayoniga rahbarlik qilgan Ubbiniyaz Ashirbekov faoliyatini baholash;

Timur Kamalov respublikada rahbarlik qilgan davr xususiyatlarini ochib berish;

Musa Yerniyazovning Qoraqalpog‘iston rivojiga qo‘sghan hissasini arxiv manbalari, xotiralar asosida xolisana yoritishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr birinchi choragida Qoraqalpog‘iston davlat arboblarining respublika siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotidagi faoliyati tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmetini** Qoraqalpog‘iston davlat arboblarining Qoraqalpog‘istonda bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealarda ishtiroki, qoraqalpoq xalqi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojiga qo‘sghan hissasi, XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr birinchi choragidagi tarixiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarda tutgan o‘rni bilan bog‘liq masalalar tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik va xolislik konstruktivizm tamoyillari, qiyosiy va muammoviy-xronologik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

XX asrning ikkinchi yarmidan sovet davlatining kadrlar siyosati asosan Qoraqalpog‘istonda sovet-partiya tizimi manfaatlariga xizmat qiladigan kadrlarni tayyorlashdan iborat bo‘lib, bir-birini mantiqan takrorlab turadigan soxta shiorlar, partiya qarorlari o‘lka ehtiyojlaridan ko‘ra ma’muriy-buyruqbozlik zanjirini to‘ldirishga xizmat qilgan kadrlar siyosatining nazariy asoslarini tashkil etganligi aniqlangan;

1950-yillardagi kadrlar masalasida partyaning bирyoqlamalik siyosati natijasida xo‘jalik organlarining partiyaviy organlar bilan almashtirilishi va boshqaruв organlari bilan quyi bo‘g‘indagi ishlab chiqarish bo‘linmalari o‘rtasidagi munosabatlarning sun’iy ravishda tartibga solinishi, xalq xo‘jaligini yuritishda boshqaruв samaradorligini pasayishiga olib kelgan erkinlik tamoyillarining buzilishi va subektivlikning kuchayishi bilan birga kechganligi dalillangan;

1970-1980-yillarda hududni boshqarish uchun Markazdan kadrlar jo‘natish siyosati, milliy rahbarlarning madaniy-texnik saviyasi, turmush darajasini “oshirish” tajribasi natijasida yuzaga kelgan xatoliklar, kadrlarning ongiga marksizm-leninizm g‘oyalari orqali “ishlov” berilishi ortidan mahalliy aholi tarixiy xotirasini zaiflashtirilganligi asoslangan.

Mustaqillikning dastlabki davrida davlat apparati tizimida mafkuraviy omilning roli sezilarli darajada pasayshi natijasida rahbar kadrlarni tanlash bo‘yicha o‘zgarishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ko‘pincha amaldagi eski amaldorlarning bir lavozimidan ikkinchisiga o‘tkazilishi, yosh salohiyatli kadrlarning yetishmasligi respublikaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida turg‘unlik holatini keltirib chiqarganligi ochib berilgan.

## **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘istonning XX asr ikkinchi yarmi - XXI asrning bиринчи чорагидаги раҳбар кадрлар сиёсатини ко‘риб чиқиш асносида мазкур соҳани қайтадан ислоҳ қилиш, ҳайотнинг барча масалалари ва vazifalarni hal etish, yurtning istiqbolini ko‘tarish uchun, boshqarish va ishlab chiqarishning барча bo‘g‘inlarida malakali, komil, yetuk mutaxassis kадрлар yetishtirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Qoraqalpog‘iston tarixining o‘рганилайотган даври тарixidagi yuqori malakali mahalliy kадрларни таъyorlash borasida узоқ yillik tarixiy tajribalarni tahlil қилиш асосида kадрлар таъyorlash milliy dasturini takomillashtirish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ilmiy xulosalar birlamchi (og‘zaki, qo‘lyozma) manbalarga asoslanganligi, tadqiqotda jahon tarix fanida tan олинган yondashuvlar va usullardan foydalanilganligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi markaziy davlat arxivi fondlari ma’lumotlaridan foydalanilganligi олинган tadqiqot natijalarining ishonchliligi va олинган natjalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr bиринчи чорагида Qoraqalpog‘iston davlat arboblarining respublika siyosiy, iqtisodiy, madaniy ҳайотидаги фаолиятига doir ma’lumotlar umumlashtirilgan holdagi tahlili асосида yangicha qarashlar ilgari surilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qoraqalpog‘iton davlat univrsitetida XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr bиринчи чорагида Qoraqalpog‘iston davlat arboblarining respublika siyosiy, iqtisodiy, madaniy ҳайотидаги фаолияти tarixiga doir maxsus kurslarni ishlab chiqishda, Qoraqalpog‘iston tarixi va madaniyati davlat muzeyida XX asr tarixiy shaxslari eksponatlarini boyitish orqali орасида давлат arboblarining o‘rnini yoritishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qoraqalpog‘iston davlat arboblarining respublika siyosiy, iqtisodiy, madaniy ҳайотидаги фаолияти tarixi bo‘yicha олинган natijalar асосида:

XX asrning ikkinchi yarmidan sovet davlatining kадрлар siyosati асоси Qoraqalpog‘istonda sovet-partiya tizimi manfaatlariga xizmat qiladigan kадrlarni таъyorlashdan iborat bo‘lib, bir-birini mantiqan takrorlab turadigan soxta shiorlar, partiya qarorlari kадrлар siyosatining nazariy асосларини tashkil etganligi haqida ma’lumotlardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati давлат muzeyidagi eksponatlarni boyitishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati давлат muzeyining 2025-yil 21-yanvardagi 16-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natjalarning qo‘llanilishi muzeyga tashrif buyuruvchilarga tarixiy, madaniy merosni targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etgan;

1950-yillardagi kадrлар masalasida partyaning biryoqlamalik siyosati natijasida xo‘jalik organlarining partiyaviy organlar bilan almashtirilishi va boshqaruв organlari bilan quyи bo‘g‘indagi ishlab chiqarish bo‘linmalari

o‘rtasidagi munosabatlarning mayda tartibga solinishi, xalq xo‘jligini yuritishda boshqaruvning erkinlik tamoyillari va subektivlikning kuchayishi bilan birga kechganligi borasidagi natijalardan Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Qoraqalpog‘iston bo‘limining “Yangi O‘zbekiston - ma’rifatli jamiyat” shiori ostidagi “Ma’naviyat festivali” doirasidagi tadbirlami targ‘ib etishda belgilangan vazifalami bajarishda foydalanilgan (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2025-yil 23-yanvardagi 01-13/07-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha ishlarni ilmiy asosda tashkil qilishga xizmat qilgan;

1970-1980-yillarda hududni boshqarish uchun Markazdan kadrlar jo‘natish siyosati, milliy rahbarlarning madaniy-texnik saviyasini, turmush darajasini “oshirish” tajribasi natijasida yuzaga kelgan xatoliklar, kadrlarning ongiga marksizm-leninizm g‘oyalari orqali “ishlov” berilishi ortidan mahalliy aholi tarixiy xotirasini zaiflashtirilganligi borasidagi natijalardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha va 2024-yilda amalga oshirish rejalashtirilgan “Yo‘l xarita”larini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi 07-06/5-01/94-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi 2024-yilda amalga oshirilgan “Ma’naviyat festivali” doirasida o‘tkazilgan tadbirlarning mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

Mustaqillikning dastlabki davrida davlat apparati faoliyatida mafkuraviy omilning roli sezilarli darajada pasayshi natijasida rahbar kadrlarni tanlash tizimida o‘zgarishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ko‘pincha amaldagi eski amaldorlarning bir lavozimdan ikkinchisiga o‘tkazilishi respublikaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida turg‘unlik holatini keltirib chiqarganligiga oid ilmiy natijalardan «Qoraqalpog‘iston» Radiokanalidagi “Miyras” eshittirishi ssenariysini tuzishda qo‘llanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining 2025-yil 3-fevraldagi 05-22/63-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularda milliy iftixon tuyg‘ularini shakllantirish va rivojlantirishda, milliy o‘zlikni anglashda ulkan ahamiyat kasb yetgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 4 ta respublika konferensiyadagi ma’ruzalarda bayon qilinib, ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot ishi kirish, uchta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 132 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, predmeti hamda obyekti, tadqiqot usullari belgilangan, ishning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi borasidagi ma’lumotlar keltirilgan.

**“1950-1960-yillardagi Qoraqalpog‘iston davlat arboblari”** nomli birinchi bobda arxiv hujjatlari va tarixiy adabiyotlar asosida respublikada rahbar lavozimlarda ishlagan T.Qambarov, P.Seitov, O.Maxmudov, N.Maxmudovlar hayoti va faoliyatini yoritiladi.

T.Qambarov boshchiligidagi Qoraqalpog‘iston raxbariyatida M.Jumanazarov, N.Japaqov, J.Seytniyazov, Q.Kamalov, M.Kalimbetov, R.Kalbayeva, O.Saparov, N.Qurbanov, K.Seytmuratov va boshqalardan iborat jamoa vujudga keldi<sup>7</sup>. Tursun Qambarov Qoraqalpog‘istonda qisqa muddat rahbarlik lavozimida ishlagan bo‘lsada, mana shu davr mobaynida davlat rejalarini ijrosini tashkil etish, xalq xo‘jaligini rivojlantirish istiqbollarini belgilashda faol ishtirok etdi, aholining “Buyuk qurilish” – Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘l liniyasi qurilishidagi ishlariga rahbarlik qilishni muvaffaqiyat bilan amalga oshirdi.

1950-yili Qoraqalpog‘iston rahbariyatida birqancha o‘zgarishlar amalga oshirilgan. 1950-yilning 6-mayida Pirjan Seitov Qoraqalpog‘iston viloyat partiya tashkilotining birinchi kotibi etib saylanadi. 1950-yili 30-avgust kuni P.Seitov QQASSR Jo‘qorgi Kengashi raisi etib saylanadi. 1951-yili may oyida N.Japaqov boshchiligidida Qoraqalpog‘iston hukumati – Vazirlar Kengashi yangi tarkibda saylanadi. O‘zbekiston hukumati loyihibarida Qoraqalpog‘iston rahbarlari ham faol ishtirok etdi. Masalan, 1951-yildan boshlab Katta Turkman kanali qurilishi munosabati bilan O‘zbekistonda suv xo‘jaligi qurilishi bo‘yicha takliflar jadal ravishda tayyorlana boshladi. Pirjan Seitov rahbarligida Qallibek Kamalov, Yerejep Aytmuratov, Daulet Yeshimbetov, Kamal Rzayev kabi kadrlar shakllanib, Daumjar Ojrayev, Qosim Nurumbetov, Pirjan Xalmuratov, Alimbay Primov, Alimbay Rajapov, Amin Tojiyev kabi yosh mutahassislar hukumat darajasidagi ishlarga jalb qilindi.

1952-1956-yillardagi rahbar Orzi Maxmudov partiyaning Qoraqalpog‘iston viloyat ko‘mitasi kotibi sifatida respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotigagina emas, madaniyat va san’at, rivojiga ham juda katta hissa qo‘shdi. Uning davrida xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqarish, tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish chora-tadbirlari yarim-yorti tarzda amalga oshirilgan. Ishlab chiqarish manfaatlarining inson manfaatlaridan qat’iy ustuvorligi saqlanib qolgan edi. Katta e’tibor ijtimoiy sohaga qaratilgan.

1956-1963-yillarda esa Qoraqalpog‘iston viloyat partiya tashkilotining birinchi kotibi sifatida faoliyat olib borgan Nosir Maxmudov hokimiyatga bo‘lgan

<sup>7</sup> QRMDA, R-551-fond, 2-ro‘yxat, 26-ish, 2 varaq

ishtiyooqi, o'zboshimchaligi, o'zgalar fikriga murosasizligi hamda ko'p masalalarni o'z bilganicha hal qilish jihatlari bilan ajralib turgan. Shu tariqa ochiqlik va prinsipiallik sifatlari yo'qolib, nosog'lom muhit yuzaga keldi. Iqtisodiyotda esa o'ziga hos muammolar vujudga kela boshladи.

1957-yilning 27-mayida Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyati alohida xalq xo'jaligi iqtisodiy kengash (Sovnarxoz) boshchiligidagi yagona ma'muriy iqtisodiy rayonga birlashtirildi. Sanoat va qishloq xo'jaligini boshqarish bo'yicha viloyat qo'mitalari, joylarda esa qishloq xo'jaligini boshqarish bo'yicha tuman qo'mitalari tashkil etildi. Shu bilan birga, tuman partiya qo'mitalari raislari ikkinchi darajali lavozimlarga o'tkazildi. Bu tadbirlar atigi bir-ikki yil davom etgan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligiga juda katta zarar keltirish uchun yetarli bo'ldi. Qoraqalpog'iston davlat xo'jaliklari 1958-yilning o'zida davlatga 108 million rubl miqdorida zarar yetkazgan, davlat xo'jaliklari bo'limlari qisqartirilgan, ularning o'rniga 250-500 hektar ekin yer maydonlariga ega brigadalar tashkil etilgan<sup>8</sup>.

Bu holat respublika boshqarish tizimidagi muammolarni ko'chaytirib yubordi. Holat shu darajaga borganki, N.Maxmudov hattoki vazirlik va davlat idoralari rahbarlarini lavozimga tayinlash bilan bog'liq qarorlar qabul qilishda viloyat qo'mitasi Byurosi va respublika hukumati a'zolari fikrlarini inobatga olmagan. QQASSR Vazirlar Kengashi raisi N.Japakov, viloyat partiya komiteti kotibi J.Seitniyazov, tuman partiya qo'mitalarining birinchi kotiblari D.Davletmuratov (Kegeyli), Ya.Abdalov (Qo'ng'irot tuman ijroiya qo'mitasi raisi) va boshqalar N.Maxmudov tomonidan qo'llangan bu kabi ish usullarga o'zlarining jiddiy noroziliklarini bildirdilar.

Bu noroziliklarga javoban 1959-yilning 24-martida QQASSR Vazirlar Kengashi raisi N.Japakov o'z lavozimidan chetlatilgan. Ko'p o'tmay, N.Maxmudovning ko'rsatmasi bilan J.Seitniyazov, A.Xudaybergenov va boshqalar lavozimidan bo'shatilgan, D.Davletmuratov va Ya.Abdalovga nisbatan jinoiy ish ochilib, ular alohida tergov izolyatoriga joylashtirilgan.

1959-yilning 31-martida K.Kamalov boshchiligidagi Qoraqalpog'iston hukumati tuzildi. Uning tarkibida V.Vengerskiy, E.Aytmuratov, R.Qalbayeva, A.Tursunboev, D.Bekbergenov, S.Buxarov, V.V.Mlinskiy, K.Seytimbetov, R.V.Nabiiev, R.Babanazarov, D.Hamidullayev, M. Matnazarov, K.Abdirov, A.Davletmuratova, N.Yusupov, M.Shalnev, X.Abutov, S. V. Kutin va boshqalardan iborat edi<sup>9</sup>.

1962-yilning 25-dekabrida Qoraqalpog'iston ASSR hududida xo'jalik ishlab chiqarishini boshqarish uchun beshta: To'rtko'l, Chimboy, Xo'jayli, Amudaryo, Kegeyli davlat-jamoa xo'jaliklarida ishlab chiqarish boshqarmalari tuzildi<sup>10</sup>.

Shunday qilib, 1951-1963-yillar oralig'ida Qoraqalpog'istonda O'zbekiston Kompartiyasi Qoraqalpog'iston Viloyat qo'mitasining 4 nafar birinchi kotiblari (P.Seitov, T.Qambarov, O.Maxmudov, N.Maxmudov) hamda va to'rtta QQASSR Ministrlar Soveti raislari (J.Seitniyazov, P.Seitov, N.Japakov, K.Kamalov),

<sup>8</sup> Камалов С.К. Ўэкиллик ҳаққында ойлар // Совет Каракалпакстаны, 1990, 27 октября

<sup>9</sup> QRMDA, 229-fond, 5-ro'yxat, 12-ish, 172-varaq.

<sup>10</sup> QRMDA, 322-fond, 3-ro'yxat, 496-ish, 37, 40-varaqlar.

almashtirilgan<sup>11</sup> bo'lsa ham, mazkur shaxslar tomonidan ma'lum darajada natijalarga erishilgan.

**"1963-1991-yillardagi Qoraqalpog'iston davlat rahbarlari: yutuqlar va inqiroz"** nomli ikkinchi bobda Qoraqalpog'iston taraqqiyotida Qallibek Kamalovning tutgan o'rni, "qayta qurish" davridagi Kakimbek Saliqov faoliyati, yosh rahbar Sagindik Niyetullayev va mustaqillik arafasida va uning ilk yilida respublika rahbari bo'lgan Dauletbay Shamshetovlarning faoliyati yoritilgan.

1963-yili Qoraqalpog'iston rahbariyatida yana bir o'zgarishlar amalga oshirildi. Q.Kamalov Qoraqalpog'iston viloyat partiya qo'mitasining bиринчи kotibi etib tayinlangan. 1963-yil 13-16-mart kunlari bo'lib o'tgan Qoraqalpog'iston ASSR Oliy Kengashining oltinchi chaqiriq ikkinchi sessiyasida Qoraqalpog'iston hukumatining yangi tarkibi tasdiqlangan va uning raisi etib Ye.Aytmuratov, R.Qalbayeva, P.S.Yermolenko, D.Jiyemuratovlar esa rais o'rindosarlari lavozimiga tayinlangan.

Qallibek Kamalov 1959-1984-yillarda avvaliga to'rt yil hukumatni, so'ngra 21-yil Qoraqalpog'iston partiya tashkilotini boshqargan. 1964-yilga kelib tumanlar avvalgi holatiga qaytarilgan, sanoat rayonlari tugatilib, ular iqtisodiy jihatdan yaxlit tumanlar, viloyatlar va hududlar tarkibiga kiritilgan. Qoraqalpog'iston ASSRning ma'muriy-boshqaruv apparatining shakllanishi ancha faollahsgan. Ammo, kadrlar o'zgarishi juda ko'chli bo'lgan. Masalan, 1960-yillar oxiriga kelib Qishloq xo'jaligi vazirligini 7 kishi Davlat Rejalshtirish ko'mitasida - 3, Avtomobil transporti va avtomobil yo'llari vazirligida - 4, Jamoat tartibini saqlash (Ichki ishlar) vazirligida - 4, Suv transporti vazirligida - 3, Kommunal xo'jaligi vazirligida - 4, Moliya vazirligi - 3, Ijtimoiy himoya vazirligida - 4, Madaniyat vazirligida - 6, Xalq ta'limi vazirdigida - 4, Davlat xafsizlik qo'mitasi (KGB) - 3, Savdo vazirligida - 5 rahbar olmashgan<sup>12</sup>.

Q.Kamalovning respublika rahbarligiga kelishi yangi imkoniyatlarning kengayishi va davlatning qishloq xo'jaligi sohasidagi strategik jihatdan muhim qarorlarini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq holda kechdi. Masalan, paxtachilik ancha kengaydi, sholichilik rivojlandi, bu yangi ekin maydonlari va suv resurslarini o'zlashtirishni, ulkan moddiy-texnikaviy investitsiyalarini jalb qilishni talab etdi. Darhaqiqat, ma'muriy va boshqaruv apparati hanuz buyruqbozlik uslubiga asoslangan holda faoliyat yuritar edi. Bu faoliyat doirasida ayniqsa, 1965-yildagi iqtisodiy islohot muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan so'ng, partiya tashkilotlarining davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari ustidan nazorati yanada kuchaydi. Faqat 1970-yillarning boshlariga kelib kadrlar siyosatida ma'lum barqarorlik yuzaga kela boshladi, bu holat ishlab chiqarish sur'atlarining shakllanishi va iqtisodiyotdagi mavjud nisbiy barqarorlik bilan izohlanadi.

1970-1975-yillarda Qoraqalpog'istonda bir qator sanoat korxonalari foydalanishga topshirildi. Ammo mamlakatning tabiiy boyliklaridan foydalanish deyarli tinimsiz xususiyat kasb etdi. 1970-yillarda Orol dengizining 2 metrga pasayishi, Mo'ynoq va Qozoqdaryo ko'rfaqlarida kema yo'llarining to'xtatilishiga

<sup>11</sup> Каракалпакстаниң жана тарийхы. – Б.216-217.

<sup>12</sup> QR MDA, 551-fond, 2-ro'yxat 67 ish, 23 varaq.

olib keldi. Mo‘ynoq baliq konserva zavodining barcha zavodlari baliq ovlash hududlaridan uzilib qoldi<sup>13</sup>. Orol dengizi halokati, yerlarning pestitsidlar, defoliantlar va boshqalar bilan ifloslanishi bu inqirozning eng yorqin ifodasi hisoblanadi. Bundan tashqari, Orol dengizi va Amudaryoda yashovchi baliq va ozuqa mahsulotlarining ekologiyasi va biologiyasida o‘zgarishlar yuz berdi, ularning soni qisqardi. Paxta yayakahokimligi, sholi yetishtirish, suv zahiralarini nomutonasiblikda foydalanilishi og‘ir ekologik oqibatlarni keltirib chiqardi.

Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan nazoratsiz foydalanish, 1961-1970-yillarda bu ikki daryo suvini Orol dengiziga o‘rtacha yillik oqimini 42,9 kub kilometrga tushirishga, 1981-1984-yillarda esa Orol dengizining 4,2 kub kilometrga kamayishiga olib keldi<sup>14</sup>. Bu Orol fojiasining eng asosiy sabablaridan biriga aylandi.

Markazning Qoraqalpog‘istondagi barcha moddiy boyliklarni, resurslarni taqsimlashi, ishlab chiqarish sohasiga oid ko‘rsatmalar berishi va uning yo‘nalishini aniqlab berishi, kadrlar masalalarini hal etishi Qoraqalpog‘istonni iqtisodiy jihatdan qoloq hududga va markazning qishloq xo‘jaligi xomashyosi bazasiga aylantirdi. Respublika markazni sholi, paxta, jun, meva, sabzavot, tabiiy gaz bilan ta’minlab turdi. Bu yerda tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan alohida korxonalar mavjud emas edi.

Shunday qilib, markazlashgan iqtisodiyot va ma’muriy-buyruqbozlik tizimi Qoraqalpog‘istonda boqimandalik mentalitetini shakllantirdi, mas’uliyatsizlikni yuzaga keltirdi. Bularning hammasi har qanday tashabbusni yo‘qqa chiqardi. Aholining ehtiyojlariga loqaydlik, mehnat natijalariga befarqlik esa ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishini sezilarli darajada to‘xtab qolishiga olib keldi.

Sovet Ittifoqidagi siyosiy boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar natijasida 1984-yilning avgust oyida Qoraqalpog‘iston partiya tashkiloti rahbari Q.Kamalov “diplomatik ishga o‘tganligi munosabati bilan” bilan vazifasidan ozod etilib, uning o‘rniga KPSS Markaziy Qo‘mita tavsiyasiga binoan K.Saliquov tayinlandi.

K.Saliquov respublika rahbariyatiga kelgach, avvalambor kadrlarni tayinlash va iqtisodiyotni faollashtirish masalalariga, shu bilan birga ekologik muammolarni yechish uchun xarakatlanadi. Shu davrda markaz tarafidan 1984-yilning iyun oyida bo‘lib o‘tgan Qoraqalpog‘iston viloyat partiya qo‘mitasining IV plenumida 90 foiz mazkur qo‘mitada faoliyat olib borayotgan rahbarlar hamda 85 foizdan ortiq shahar va tumanlardagi rahbar xodimlar tarkibi yangilandi<sup>15</sup>.

K.Saliquov odatdan tashqari qobiliyatli, qarama-qarshi, qo‘qqisdan o‘ylangan va kutilmaganda bajariladigan ishlarga moyil shaxs edi. Uning zukko va harakatchan rahbar bo‘lganligini ham e’tirof etib o‘tish lozim. Ammo, vaqt o‘tgach, Qoraqalpog‘iston xalqi va ziyorolarining K.Saliquovga munosabati murakkab va ziddiyatli tus oldi. Sababi respublika iqtisodiyoti tanazzulga uchrab,

<sup>13</sup> O‘sha joyda, 553-ish, 1, 4, 633-varaqlar.

<sup>14</sup> Алимова Д., Голованов А. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборства идей и идеологии. -Ташкент, 2002. 71-б.

<sup>15</sup> Кошанов Б.А., Отегенов Х.М. Очерки истории Каракалпакстана (1916-1991 гг.). – Нукус: Каракалпакстан, 2021. С.115.

iqtisodiy ko'rsatkichlar keskin pasayishi ortidan aholining moddiy farovonligi ham pasayib ketdi.

Bu davrda nafaqat Qoraqalpog'iston, balki Sovet Ittifoqidagi iqtisodiy inqiroz jihatlari ko'rinyotgan edi. Respublika hukumati e'tiborini Qoraqalpog'istoning iqtisodiy potensialini o'stirishiga, undan foydalanish samaradorligini oshirishiga qaratdi. Masalan, 1985-yili sanoat ishlab chiqarishi hajmi 17,5% oshgan, qishloq xo'jaligida mehnatning energiya bilan qurollarining harajati 46,5% ko'payib, o'qish maydonlari 33,2% kengaydi. Mablag' bilan ta'minlashning hamma manbalari hisobiga 2276 ming kvadrat metr uy-joy, 32,2 ming o'quvchiga mo'ljallangan maktablar, 1800 o'rinali kasalxonalar, 14 ming o'rinali maktabgacha tarbiya muassalari, ko'pgina boshqa madaniy-maishiy va kommunal xizmat obyektlari quriladi<sup>16</sup>. Shu bilan birga korxonalarning 10-14% mahsulotni sotish rejali bajarilmay, har uch korxonadan bittasi o'z shartnomaga majburiyatlarini buzib, 1985-yilda 14 ta zavod va fabrika mehnat unum dorligi bo'yicha belgilangan topshiriqni bajarmagan. 24 korxona esa unum dorlikni 1984-yildagiga nisbatan kamaytirib yuborgan. Yangi texnika va texnologiya, mehnatni tashkil qilishning zamnaviy metodlari sust joriy etilgan. 1980-yillar o'rtalariga kelib chala qolgan qurilishlar hajmi 185 mln so'm miqdorda ortib ketgan. «Qoraqalpoqsovxoqstroy» boshqarmasining o'zidagina 56 million so'mlik sal kam 600 obyekt bitkazilmay qolib, 1985-yili asosiy fondlarni ishga tushirish plani atigi 79% ga bajarilgan<sup>17</sup>.

Qoraqalpog'iston aholisining turmush darajasi bo'yicha boshqa respublikalardan ortda qolib, asosiy sabablaridan biri mehnatkash aholining o'z mehnati natijalariga o'zi egalik qila olmagani bo'lib, masalan, yig'ilgan paxta narxi juda past, o'z-o'zini oqlamas edi. Shu tariqa, ovul-qishloqlarda yashovchi aholi paxta ekish va yig'ishga qiziqishi bo'lмаган. Avvalgi yillari paxta dalalarida shahar va tumanlar markazidagi korxona, muassasa va boshqa da ish joylaridagi xodimlar, maktab, oliy ta'lim o'quvchi va o'qituvchilari yiliga 3-4 oy lab qishloq aholisiga yordamga chiqardi. Tumanlarda, ovul-qishloqlarda maktab o'qituvchilari va o'quvchilari yiliga 3-5 oygina dars berib, ta'lim olardi. Q.Saliquov davrida esa paxta terish jarayoniga shahar aholisini jalb etish bir oy bilan cheklandi.

K.Saliquov rahbarligida respublika hukumati a'zolari Orol fojeasini uzoq vaqt davomida yashirib kelgan sobiq SSSR siyosiy rahbariyatini 1986-yilning 17-martida (340-sun) va 1988-yil 19-sentyabrida (1110-sunli) qarorlarni qabul qilishga majbur qildi<sup>18</sup>. Shu bilan birga Qoraqalpog'istonda ekologik prokuraturasini ta'sis etishi ham muhim jarayon edi.

1986-yilning 11-yanvarida Qoraqalpog'iston viloyat partiyasining XXIX konferensiysi bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etgan vakillar mavjud vaziyatni keskin tanqid qilar ekan, ma'muriy-boshqaruva tizimining turli jihatlarini ko'rsatib o'tgan. Masalan, konferensiyyada xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida qo'shib yozish va o'g'irlik va o'z mansabini suiste'mol qilish bilan bog'liq holatlar aniqlangani ta'kidlab o'tilgan. Shu bois, 1984-1986-yillarda ma'muriy-boshqaruva tizimida

<sup>16</sup> O'zR MA, R-2454-fond, 6-ro'yxat, 5856-ish, 3-varaq.

<sup>17</sup> O'sha joyda

<sup>18</sup> Кошанов Б.А., Отегенов Х.М. Очерки истории Каракалпакстана (1916-1991 гг.). – Нукус: Каракалпакстан, 2021. С. 116.

faoliyat olib borgan rahbar xodimlarning 150 nafari turli huquqbazarliklari uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan, viloyat partiya qo‘mitasining turli lavozimlarida ishlagan 43 nafar rahbar almashtirilgan<sup>19</sup>. Umuman, 1983-1988-yillari Qoraqalpog‘iston paxta kompleksi bo‘yicha 27 ta ish qo‘zg‘atilib, “paxta ishi” bo‘yicha 1986-yil – 10 ta , 1986-yil – 56 ta 1987-yil – 55 ta , 1988-yil – 24 ta, 1989-yil – 14 ta, jami 159 kishi sudlangan<sup>20</sup>.

1989-yilning yozida O‘zbekiston og‘ir va murakkab davrni boshidan kechirayotgan edi. I.A.Karimov boshchiligidagi O‘zbekistonning yangi rahbariyati mavjud muammolarga ehtiyyotkorlik bilan yondoshib, ularga to‘g‘ri yechim topishga harakat qildi. O‘zbekistonning yangi rahbari 1984-1989-yillarda Qoraqalpog‘istonda K.Saliquov ishlagan tarixiy davrga xolisona tarzda quyidagicha baho berib o‘tadi: “Aslini olganda respublikaning milliy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariiga bepisandlik, xalqni mustabidlikda ushslash va xo‘rlash siyosati, birinchi navbatda, paxta yakkaxokimligi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyat halokatli darajada yomonlashishi – bularning barchasi bankrot bo‘lgan ma’muriy-buyruqbozlik va e’tiborsizlik siyosati sababli ro‘y berdi”<sup>21</sup>.

1989-yil 22-iyulda S.D. Niyetullayev Qoraqalpog‘iston viloyat partiya tashkilotining birinchi kotibi etib saylanadi. U nafaqat Qoraqalpog‘iston, balki O‘zbekiston tarixidagi eng qiyin va murakkab davrda respublika rahbaryatiga tayinlangan edi. O‘zbekiston hukumati ana shunday o‘ta og‘ir vaziyatlarga qaramay, Orolbo‘yi muammosiga alohida e’tibor qaratib, vaziyatning yanada fojeali tus olishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildi. Respublika rahbari sifatida o‘z faoliyatini boshlagan I.A.Karimov 26-iyul kuni bu yerdagi haqiqiy ahvol va aholining kayfiyati bilan yaqindan tanishish, birinchi navbatda hal qilish kerak bo‘lgan muhim masalalarni aniqlash maqsadida dastlab Qoraqalpog‘istonning Mo‘ynoq tumaniga tashrif buyurdi<sup>22</sup>.

Aytish lozimki, Qoraqalpog‘iston ijtimoiy-siyosiy hayotida “qayta qurish” deb atalmish mafkurani hamma ham tushunib yetmagan. Amalda partiya organlari hali ham Orol muammosi va millatlararo munosabatlarga oid chiqishlariga to‘sinq qo‘yish orqali ziyorilar kayfiyatini qat’iy nazoratda ushslashni davom ettirayotgan edi.

Iqtisodiyotda esa barcha xo‘jaliklarni o‘z-o‘zini moliyalashtirishga o‘tukazdi, ammo xalq xo‘jaligining deyarli hech bir tarmog‘i foyda keltirmadi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti avvalgiday juda sekinlik bilan davom etar edi. Sanoat ishlab chiqarish quvvatining atigi 72 foizidan foydalanilgan. Yirik qurilishlar uchun sarflangan mablag‘larning 55 mln., qurilish–montaj ishlarida – 31 mln. rubl o‘zlashtirilmagan. Respublika hududidagi sanoat sohasidagi 98 ta korxonaning barchasi bevosita SSSR va O‘zbekistondagi vazirlik va idoralariga bo‘ysungan. Nukus, Taxiatosh, Qo‘ng‘iroq, Chimboy, To‘rtko‘l shaharlaridagi «Orolsuvqurilish», «Orol qishloq

<sup>19</sup> QR MDA, R-551 fondi, 13-ro‘yxat. 6-ish, 174-175-varaqlar.

<sup>20</sup> Кошанов Б.А., Отегенов Х.М. Очерки истории Каракалпакстана (1916-1991 гг.). – Нукус: Каракалпакстан, 2021. С. 115.

<sup>21</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон мустакилликка эришиш арафасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. 115-6.

<sup>22</sup> Каримов И.А. Бизнинг олий мақсадимиз – Ватан мустақиллиги ва равнақи, халқ озодлиги ва фаровонлиги. Т.8. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. - Б.100-101.

xo‘jaligi va suv qurilishi» («Aralselxozvodoprovodstroy») va boshqa birlashmalarning joylashtirilishi qishloqlar va tuman markazlari rivojlanishining ancha ortda qolishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi<sup>23</sup>.

S.Niyetullayev davrida “qayta qurish”ning shiddatli to‘lqinlari jarayonida paydo bo‘lgan muammolar orasida “til maqomi” va suverenitet kabi masalalar yuzaga chiqa boshladi. Bu masalaning O‘zbekistonda va Qoraqalpog‘istonda kun tartibiga qo‘yilgani ham bejizga emas edi. 1989-yil 1-dekabrda Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyasi 70-modda bilan to‘ldirildi va qoraqalpoq tiliga davlat tili maqomi berilishini tasdiqladi. Shuningdek, O‘zbekistonning tarkibiy bir qismi bo‘lgan Qoraqalpog‘istonning suverenitet konsepsiysi garchi asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, o‘z yo‘lini ochdi va e’tirofga sazovor bo‘ldi.

